O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING JIZZAX
VILOYATI BOSHQARMASI

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel/Faks: 71-203-11-09, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Safarov Bobir Sabirjanovich
Sana: 09-12-2025 yil

# YIG'MA EKSPERT XULOSASI

268163 - SONLI

| | |
|---|---|
| **Obyekt nomi:** Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Kimyogar MFY, Alisher Navoiy ko'chasi, 31-uy manzilida noturar joy binosini qauta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilib to‘liq noturar joy binosini 1-qavatining bir qismidan nodavlat ta’lim tashkiloti, qolgan va 2-7 qavatlarini turar joy binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiua qilish | |
| **Buyurtmachi:** | ASILA BONU MCHJ |
| **Bosh loyihachi:** | "CREATIVE PROJECTS" MCHJ |
| **Moliyalashtirish manbai:** | Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan |
| **Bosh pudratchi:** | Tender tanlovi asosida |
| **Qurilish turi:** | Yangi qurilish |
| **Murojaat raqami:** | 102385 |

**1. Loyihalash uchun asos.**

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 15.10.2025 yilda berilgan obektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga 221242938-sonli ruxsatnoma.

1.2. Buyurtmachi "ASILA BONU" MCHJ va loyihachi “CREATIVE PROJECTS” MCHJ tomonidan 10.10.2025 yilda tasdiqlangan va kelishilgan Loyiha topshirig’i.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 16.10.2025 yilda berilgan 1708-1708401-243216-sonli Arxitektura - rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 05.11.2025 yilda berilgan loyiha-smeta hujjatlarini kelishish boyicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 225265504-sonli xulosasi.

1.5. Ob’ekt uchun muxandislik-geologik sharoitlar bo‘yicha “Absolyut klassik” MCHJ tomonidan 2025 yil noyabr oyida bajarilgan texnik xulosa.

1.6. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Jizzax hududiy filiali elektr tarmoqlariga ulanish uchun 26.11.2025 yilda berilgan 08402133068-sonli "Texnik shart"

1.7. “Jizzax suv ta’minoti” AJning 24.11.2025 yilda berilgan 232/10-sonli obektni shahar ichimlik va oqava suv ta’minotiga ulanish uchun "Texnik shart"

1.8. Buyurtmachi " ASILA BONU"" MCHJ va loyihachi "CREATIVE PROJECTS" MCHJ o'rtasidagi loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 16.10.2025 yilda tuzilgan 58-sonli

shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.**

2.1. Buyurtmachi "ALFA-PLYUS" MCHJning 25.09.2025 yildagi 23-sonli murojaat xati.

2.2. Bir bosqichda ishlab chiqilgan ishchi loyiha hujjatlarning tarkibi:

- Loyiha hujjatlari; Bosh reja, arxitektura rejalashtirish va temirbeton konstruksiyalar, suv ta’minoti va oqova suv tarmog‘i, elektr ta’minoti va eletr yoritish, yong‘inga qarshi signalizatsiya, SKS loyihasi, FES loyihasi, tashqi suv ta’minoti va oqova suv tarmog‘i, NBSH loyihalari.
- Umumiy tushuntirish xati.
- Smeta hujjatlari; yig‘ma resurs smetasi va lokal resurs smetasi.

**3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.**

Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Kimyogar MFY, Alisher Navoiy ko'chasi, 31-uy manzilida noturar joy binosini qauta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilib to‘liq noturar joy binosini 1-qavatining bir qismidan nodavlat ta’lim tashkiloti, qolgan va 2-7 qavatlarini turar joy binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiua qilish bosh rejasi (GP) bo'limi Jizzax viloyati qurilish va uy joy komunal xo'jaligi boshqarmasi tomonidan berilgan 16.10.2025-yildagi, 1708-1708401-243216-sonli ART asosida, 1:500 masshtabdagi topografik xaritada, barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda bajarilgan.

Hudud to'rt tomondan quyidagilar bilan chegaralanadi:

- Shimolda - mini futbol maydoni bilan;
- Janubda - ko`p qavatli uy bilan;
- Sharqda - ko`p qavatli uy bilan;
- G'arbda - noturar bino bilan.

Bosh reja ishchi loyihasida quyidagi bino va inshootlar va ish turlari aks etgan:

Hududda mavjud bino va inshootlar tarkibi:

- Mavjud binolar.

Hududda qurilayotgan yangi bino va inshootlar tarkibi:

- Ko’p qavatli turar-joy binosi Blok-A,
- Ko’p qavatli turar-joy binosi Blok-B,
- Bolalar maydonchasi,
- Avtoturargox,
- Maishiy chiqindi tashlash joyi.

Qurilish uchun ajratilgan hududdagi barcha injenerlik tarmoqlari va irregasiya inshootlari mahalliy mutasaddilar ishtirokida ko'chirish inobatga olingan. Qurilish boshlanishidan avval hudud yuzasi tekislanadi. Hudud obodonlashtirildi, yo'llar va piyodalar o'tish yo'llari qattiq sirtga ega. Qurilish maydonining vertikal rejasi binolarni mavjud relefga nisbatan to'g'ri joydashtirish, yashil maydonlarni, sug'orish imkoniyatini, shuningdek, chiqindilarni va yomg’ir va qor suvlarini hudud yuzasidan olib chiqilishi ta'minlandi.

Yo'llar, piyodalar yo'llari asfaltbeton va yo’lak toshi(bruschatka) qoplamasi bilan ta'minlangan. Bolalar maydonchasi zichlangan qum qoplamasi bilan ta'minlangan. Bolalar maydonchasiga maxsus o'yin jixozlari o'rnatilgan. Shuningdek hudud ko'p yillik manzarali daraxtlar va yashil maysalar bilan ko'kalamzorlashtiriladi. Hududga suyanchiqli o'rindiq va kichik axlat qutilari o'rnatiladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning hududda erkin, to'siqsiz harakatlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan hamda maxsus belgi asosida avtoturargoxda o'rin ajratilgan.

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududda quyidagi chora tadbirlar amalga oshirilgan:

1. Qurilayotgan binolar yaqinida yong'inga qarshi shit joylashtirilgan;
2. Qurilayotgan binolar yaqinida yong'inga qarshi suv gidrantlari joylashtirilgan;

3. O't o'chirish mashinalarining barcha binolar yaqiniga borishi uchun qattiq qoplamali yo'llar bilan ta'minlangan.

Taqdim etilgan chizmada ishlab chiqilgan binolar hamda inshootlar loyihalarining bog'lanish chizmasini elektron formatda hududdagi geodezistga beriladi. U elektron fayldan foydalanib bosh rejadagi bino va inshoot o'qlarini koordinatalarini yechib oladi. Shu ma'lumotlarni u elektron taxeometr yoki boshqa elekton uskunalarga kiritib loyihani asl holga ko'chirishi (razbivka) mumkin.

Buyurtmachining talabi va ishtirokida, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hududiy boshqarmasi mutasaddilari bilan birgalikda hudud o'rganilib, hududning qurilish zichligi yuqoriligi inobatga olib loyihadagi bino qurilishiga ruxsat berilgani (ijobiy kengash xulosasi asosida), shuningdek hududning ko’p qism yuzasi qurilish osti maydoni sifatida foydalanilgani xolida, binoga yaqin bo'lgan hududlarni (o'zga shaxsga tegishliligida nizolar mavjud emas) ham obodonlashtirish ko'zda tutilganligi ma'lum qilingan. Qo'shimcha avtoturargoh o'rini hududga yaqin sport maydoni mavjud avtorturargohidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ajratilgan yer hududi balansi:

- Qurilish hududi – 2800,0m$^2$;
- Bino osti maydoni – 947,7m$^2$;
- Yo'l va yo'laklar maydoni – 1552,3m$^2$;
- Ko'kalamzorlashtirilgan maydon – 300,0m$^2$.

**3.2. Arxitektura rejalashtirish yechimlari: Blok A**

Bino 7 (yetti) qavatli, 36 xonadonli turar-joy binosi. Bino to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida. O‘qlar buyicha gabarit o‘lchamlari 14,2x32,5 m. Bino bir yo‘lakli, yerto’ladan iborat. Yerto’la balandligi h=3,2m. 1-chi qavat poldan shiftgacha balandligi h=3,5 m. Qolgan 2,3,4,5,6,7-chi qavatlar poldan shiftgacha balandligi h=3,0 m.

Yerto‘la qavatida zina katagi, lift shaxtasi, nasos xonasi va texnik xonalar joylashgan. 1-chi qavatda zina katagi, lift shaxtasi, yo‘lak, xoll, o‘qituvchilar xonasi, direktor xonasi, uquv xonalar, sanitar xona, xojatxona joylashgan. 2-chi qavatdan, 7-chi qavatgacha zina katagi, lift shaxtasi,yo‘lak, sanitar xona, vanna xona, oshxona, yotoqxona, mexmonxona va balkon joylashgan.

Xonadonlar soni: uch xonali 12-ta xonadon, ikki xonali 18-ta xonadon, bir xonali 6-ta xonadon. Jami 36-ta xonajon mavjud.

Binolarning javobgarlik sinfi - II.

Chidamlilik darajasi - II.

Yong'inga chidamlilik darajasi - II.

Funksional yong'in xavfi bo'yicha sinfi - F1.3.

Konstruktiv yong'in xavfi bo'yicha sinfi - C1.

Qurilish inshootlarining yong'in xavfi sinfi - K1.

Portlash va yong'in xavfi bo'yicha bino toifasi - G.

Ishonchlilik koeffitsienti - 0,95.

Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlar.

- Qurilish maydoni – 501,8 m2
- Umumiy maydon – 3198,24 m2
- Samarali maydon – 2458,98 m2
- Yashash maydoni– 1305,32 m2
- Qurilish xajm – 14401,66 m3

**3.3. Konstruktiv yechimlari: Blok A**

Poydevorlar 700 mm qalinlikda sinf-B20 W4 monolit temirbeton yaxlit plita armatura setkalari bilan kuchaytirilgan.

Erto’la tashqi devorlari yig‘ma beton FBS bloklardan qalinligi 400 mm.

Tashqi devorlar qalinligi 300 mm bo'lgan D400 avtoklav gazabloklaridan va pishtgan g‘isht 380mm qalinlikda. Tashqi devorlarga qalinligi 50mm Y=120kg/$m^3$ bazalt mineral plitalar urnatilib energatejamkorlik oshirilgan.
Ichki devorlar pishtgan g‘isht 250mm qalinlikda. Devorlar xar 700 mm qadamda gorizontal armo-setka bilan mustaxkamlangan.
Ustunlar- 400x400mm, 500x500mm, o‘lchamli quyma monolit temir betondan, beton sinfi B22, 5.
To‘sinlar 400x400mm, 400x450mm o‘lchamli quyma monolit temir betondan, beton sinfi B22,5.
Bikirlik diafragmasi monolit devor 250mm qalinlikda sinf-B22,5 monolit temirbetondan
To‘siq devorlar qalinligi 120 mm, pishtgan g‘ishtdan bajariladi.
Sarbastalar metalldan .
Zinapoya katagi va elementlari- quyma temir beton plitalardan, beton sinfi B22,5
Bino yopmasi va qavatlar ora yopmasi temir beton dumaloq ichi bo‘sh, yig‘ma, temir beton plitalardan.
Tom yopmasida issqlik saqlovchi qatlami 100mm qalinligi Y=140kg/m3 mineral plitalar o’rnatilib energotejamkorlik oshirilgan
Tom yopmasi yog‘och konstruksiyaga bo‘yoklangan profillangan 0,51mm temir tunakalardan bajarilgan.
Pol (yerto’la bilan) –beton, relin, laminat, keramik va marmar plitalar.
Deraza bloklari - individual ishlab chiqarilgan bir kamerali steklopaket metallplasttik profillardan.
Tashqi eshik bloklari yo‘lakga kirish - individual ishlab chiqarilgan kodli yaxlit metall eshiklar.
Tashqi eshik bloklari xonadanga kirish - individual ishlab chiqarilgan yaxlit metall eshiklar.
Ichki eshik bloklari - individual ishlab chiqarilgan MDF va alyumin profillardan.
Ichki va tashqi pardozlash ishlari loyiha buyicha.
Otmostka enligi 1500mm.

**3.4. Arxitektura rejalashtirish yechimlari: Blok B**

Bino 7 (yetti) qavatli, 30 xonadonli turar-joy binosi. Bino to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida. O‘qlar buyicha gabarit o‘lchamlari 14,7x26,6 m. Bino bir yo‘lakli, yerto’ladan iborat. Yerto’la balandligi h=3,2m. 1-chi qavat poldan shiftgacha balandligi h=3,5 m. Qolgan 2,3,4,5,6,7-chi qavatlar poldan shiftgacha balandligi h=3,0 m.
Yerto‘la qavatida zina katagi, lift shaxtasi, nasos xonasi va texnik xonalar joylashgan. 1-chi qavatda zina katagi, lift shaxtasi, yo‘lak, xoll, o‘qituvchilar xonasi, direktor xonasi, uquv xonalar, sanitar xona, xojatxona joylashgan. 2-chi qavatdan, 7-chi qavatgacha zina katagi, lift shaxtasi,yo‘lak, sanitar xona, vanna xona, oshxona, yotoqxona, mexmonxona va balkon joylashgan.
Xonadonlar soni: ikki xonali 30-ta xonadon. Jami 36-ta xonajon mavjud.
Binolarning javobgarlik sinfi - II.
Chidamlilik darajasi - II.
Yong'inga chidamlilik darajasi - II.
Funksional yong'in xavfi bo'yicha sinfi - F1.3.
Konstruktiv yong'in xavfi bo'yicha sinfi - C1.
Qurilish inshootlarining yong'in xavfi sinfi - K1.
Portlash va yong'in xavfi bo'yicha bino toifasi - G.
Ishonchlilik koeffitsienti - 0,95.
<u>Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlar.</u>
- Qurilish maydoni – 404,0 m2
- Umumiy maydon – 2809,38 m2

- Samarali maydon – 223,82 m2
- Yashash maydoni– 1845,42 m2
- Qurilish xajm – 11594,8 m3

**3.5. Konstruktiv yechimlari: Blok B**

Poydevorlar 700 mm qalinlikda sinf-B20 W4 monolit temirbeton yaxlit plita armatura setkalari bilan kuchaytirilgan.

Erto'la tashqi devorlari yig'ma beton FBS bloklardan qalinligi 400 mm.

Tashqi devorlar qalinligi 300 mm bo'lgan D400 avtoklav gazabloklaridan va pishtgan g'isht 380mm qalinlikda. Tashqi devorlarga qalinligi 50mm Y=120kg/$m^3$ bazalt mineral plitalar urnatilib energatejamkorlik oshirilgan.

Ichki devorlar pishtgan g'isht 250mm qalinlikda. Devorlar xar 700 mm qadamda gorizontal armo-setka bilan mustaxkamlangan.

Ustunlar- 400x400mm, 500x500mm, o'lchamli quyma monolit temir betondan, beton sinfi B22, 5.

To'sinlar 400x400mm, 400x450mm o'lchamli quyma monolit temir betondan, beton sinfi B22,5.

Bikirlik diafragmasi monolit devor 250mm qalinlikda sinf-B22,5 monolit temirbetondan

To'siq devorlar qalinligi 120 mm, pishtgan g'ishtdan bajariladi.

Sarbastalar metalldan .

Zinapoya katagi va elementlari- quyma temir beton plitalardan, beton sinfi B22,5

Bino yopmasi va qavatlar ora yopmasi temir beton dumaloq ichi bo'sh, yig'ma, temir beton plitalardan.

Tom yopmasida issqlik saqlovchi qatlami 100mm qalinligi Y=140kg/m3 mineral plitalar o'rnatilib energotejamkorlik oshirilgan

Tom yopmasi yog'och konstruksiyaga bo'yoklangan profillangan 0,51mm temir tunakalardan bajarilgan.

Pol (yerto'la bilan) –beton, relin, laminat, keramik va marmar plitalar.

Deraza bloklari - individual ishlab chiqarilgan bir kamerali steklopaket metallplasttik profillardan.

Tashqi eshik bloklari yo'lakga kirish - individual ishlab chiqarilgan kodli yaxlit metall eshiklar.

Tashqi eshik bloklari xonadanga kirish - individual ishlab chiqarilgan yaxlit metall eshiklar.

Ichki eshik bloklari - individual ishlab chiqarilgan MDF va alyumin profillardan.

Ichki va tashqi pardozlash ishlari loyiha buyicha.

Otmostka enligi 1500mm.

3.6. Loyiha hujjatlarida qabul qilingan yong'in xavfsizligi tadbirlarining qisqacha tavsifi: Loyiha bilan 2 ta blokdan iborat 7 qavatli turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Yerto'la qavatida texnik va omborxonalar, 1-qavatida noturar xonalar, 2-7 qavatlarida yashash kvartiralarini joylashtirish rejalashtirilgan. Yerto'la qavatidan bevosita tashqariga chiqish evakuatsiya yo'llari va chuqurchalar bilan ta'minlangan avariya derazalari mavjud. Tom qismi – yog'och konstruksiyalari yordamida profnastil yopilgan.

Konstruksiyalarning chegaralangan holatlariga ko'ra, binolarning olovbardoshlik darajasi – II, konstruktiv yong'in xavfi sinfi – S1, funksional yong'in xavfi sinfi - 1.3, Turar joy binolarining balandligi +21,4 m (yer sathidan eng yuqori qavatining ochiladigan eshigi pastki chegarasigacha).

Yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida ko'zda tutilgan tadbirlar: Binolar devorlarning tashqi fasad qismiga yonmaydigan materiallardan ishlov berish, har bir kvartiradan ochiq turdagi (chiqish joyi, chetidan (torets) derazagacha eniga 1,2 m dan kam bo'lmagan yopiq devor bilan ta'minlangan) balkonlar, tom qismida tutqichlar, tom yog'och qismlariga yonish xususiyatini pasaytiruvchi suyuqlik bilan ishlov berish, evakuatsiya yo'lidagi eshiklar uchun

o‘zini-o‘zi zichlab yopuvchi moslamalar, yong‘in-qutqaruv avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali aylanma yo‘l, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun hududda yong‘in o‘chirish gidrantlari, kvartiralarning yo‘lak va oshxonalarida yong‘in signalizatsiya tizimi habarlagichlari, yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari, 1-qavat (noturar xonalar)da kranlar bilan ta’minlangan ichki yong‘in o‘chirish suv tizimi, yerto‘la qavatida bosim ko‘taruvchi nasos qurilmalari.

3.7. Nogironlar bo‘lgan shaxslar uchun to'siqsiz va qulay harakatlanish uchun sharoishlar yaratilgan. SHNQ 2.07.02-22 «Qurilish obektlarini nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar extiyojini inobatga olgan xolda loyihalashtirish» hamda 18.07.2024 yildagi PK-266 sonli qaror talablari yuzasidan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xavfsiz va tusiqsiz muxit yaratildi. Bosh reja kismida avtoturargoxda aloxida joy, tashqi yo‘laklarga taktil qoplama, kirish eshigi uchun chaqiruv tugmasi, ichki hojatxona, chiqish joylarida pandus ko‘rsatilgan, eshik atrofiga kontrast belgi va xokazolar to‘lik tashkil qilindi.

**4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.**

4.1. Sovuq suv ta'minoti. Trubalar pol tagidan va pol ustidan yurgizilgan. Sovuq suv bosimini taminlab beruvchi A blok uchun Nasosnaya stansiya 2Acm110 Q=6m3/chas H=33.0 1,1 kBt (380 V), B blok uchun Nasosnaya stansiya 2Acm110 Q=5.4m3/chas H=29.0 1,1 kBt (380 V) quvvatidagi nasos qurilmasi o`rnatilgan. Binoda D20.D25.D32.D40.D50. mm polipropilen quvurlardan tayyorlanadi

4.2. Issiq suv ta'minoti. Elektr suv isitgichilaridan foydalanilgan. Quyosh kollektorlari buyurtmachining 2024 yil 28 oktabrdagi №02-11/2967-sonli xati asosan inobatga olingan. Bino tom qismiga 300 litrli quyosh suv isitgich kollektorlaridan o`rnatilgan.Issiq suv ta'minoti quvurlari D20. mm folga bilan polipropilen quvurlardan tayyorlanadi.

4.3. Ichki kanalizatsiya tarmoqlari. Chiqish va ichki kanalizatsiya tarmoqlari GOST 22689-89 bo'yicha  50-100 mm plastik quvurlardan tayyorlangan.Ichki kanalizatsiya trubalari pol tagidan va pol ustidan yurgizilgan.Kanalizatsiya trubalariga tozalash vositasi qilib reviziya bilan taminlangan.

4.4. Ichki yong`in o`chirish Binoning yerto`la qismi yong`in o`chirish qurilmasi bilan taminlangan.Binoning yerto`la qismi avtomabil turarjoyi sifatida foydalaniladi.Yong`in o`chirish suvlarini bosimini taminlab beruvchi oj. nacoci Grunfos NB 32-250/236 13.8m3/ch; 18.0m, 1.1 kVt (380 V) quvvatidagi nasos qurilmasidan foydanilgan

4.5. Tashqi ichimlik suv ta'minoti mavjud ulanish nuqtasi Jizzax suv taminoti AJ ning 20.08.2024 №1161 xatiga asosan Jizzax shaxar Toshloq MFY,I.Karimov ko`chasi 60-uy noturar joy hududidagi mavjud ichimlik suviga ulanish ko`rsatilgan. Suv ta'minoti tarmog'i GOST 18599-2001 bo'yicha polietilen quvurlardan Dn = 32 va mm quvurlardan tayyorlangan

4.6. Tashqi oqova suv taminoti Jizzax suv taminoti AJ ning texnikshartiga kura ichimlik suv va oqova suv tarmoqlari mavjud tarmoqlarga ulanish ko`zda tutilgan.

4.7. Tashqi yong`in o`chirish QMQ 2.04.02-19 «Suv ta’minoti Tashqi tarmoqlar va inshoatlar” ga asosan yong`in o`chirish gidrantlari o`rnatilgan.

4.8. Ichki elektr yoritish va elektr kuch uskunalari: Kiritish-tarqatish uskunasi sifatida VRU1-2 3-55 olingan. Ximoya apparatlari uchun avtomat uzgichlar tanlangan. Magistral tarmoqlar uchun VVGng-0,66 kV markali kabellar ishlatilgan. Magistral tarmloqlarni mexanik shikastlanishdan PVX quvurlar yordamida ximoyalangan. Xar-bir qavat uchun SHRn, SHE qavat shitlari o‘rnatilgan. Ximoya aparatlari uchun avtomat uzgichlar tanlangan. Tarqatuvchi tarmoqlar uchun VVGng-0,66Kv markali kabellar ishlatilgan. Elektr yoritish uchun svetodiodli va svetodiod lampali yoritgichlar qo‘llanilgan.

4.9. Muqobil energiyaga o‘tkazish bo‘yicha qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini loyihada BlokA binoning tom qismiga quvvati 600 Vt bo‘lgan jami 24-ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 15 kVt bo‘lgan

Invertor o‘rnatilgan. BlokB binoning tom qismiga quvvati 600 Vt bo‘lgan jami 20-ta quyosh panellarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan. Inventor tipi «tarmoqqa ulanadigan» quvvati 12 kVt bo‘lgan Invertor o‘rnatilgan.

4.10. Yonginga qarshi signalizatsiya tizimi va SKS loyihalashtirilgan.

4.11. Buyurtmachining 03.12.2025 yildagi 8-sonli xati va tasdiqlangan loyiha topshirig‘ining 13-bandiga ko‘ra, tashqi elektr ta’minoti (NES) va issiqlik ta’minoti (OV) loyihalari, qurilishning 2-chi bosqichida loyihalashtiriladi va eskpertizadan o‘tkiziladi.

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Jizzax viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi tomonidan 05.11.2025 yilda berilgan loyiha-smeta hujjatlarini kelishish boyicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 225265504-sonli xulosasi.

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Jizzax viloyati filiali tomonidan 30.10.2025 yilda berilgan 01-02/04-2425-sonli davlat ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishilishi lozim.

**6. Ekspertiza natijalari.**

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **21 447 606 623** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

**529 472 386** so'mga kamaytirilib, **20 918 134 237** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **18 100 919 474** so'm

Asbob-uskunalar: **516 410 639** so'm

QQS: **2 241 228 668** so'm

Qurilishni sug‘urtalashga sarflangan harajatlar 0,32%: **59 575 456** so‘m

Umumlashtirilagan smeta hisobida ishchi-quruvchilar mehnat sarfi miqdori 132346,88 odam/soat

6.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Kimyogar MFY, Alisher Navoiy ko'chasi, 31-uy manzilida noturar joy binosini qauta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilib to‘liq noturar joy binosini 1-qavatining bir qismidan nodavlat ta’lim tashkiloti, qolgan va 2-7 qavatlarini turar joy binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiua qilish”** bo‘yicha tayyorlangan loyiha smeta hujjatlarini kelgusida kelishish uchun buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan hisoblaganda umumiy miqdorda **20 918 134 237** so‘m tavsiya etiladi.

6.2. Smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish jarayonida aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgandan so‘ng, ya’ni, o‘rtacha bozor narxidan baland bo‘lgan ba’zi qurilish materiallari hamda mashina va mexanizmlarning narxlari pasaytirilishi natijasida, qurilish ta’mirlash ishlari qiymati kamaytirildi.

6.3. Obektning qurilish narxi “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChj tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi katalogi, birja va amaldagi o‘rtacha narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

6.4. Ekspertlar tomonidan berilgan lokal xulosalardagi e’tirozlar, loyiha-smeta hujjatlarida inobatga olinganligi va e’tirozlar bartaraf etilganligi, buyutmachining nazoratida va loyiha tashkilotining zimmasida turadi.

6.5. Qurilish, montaj ishlarini bajarilishida qaytarilgan materiallar (vozvrat materialov) qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan aniqlansin.

6.6. SHNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda, ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini, hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlar, birja va yarmarkalarining byulletenlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), tashkilotlar

eng maqbul narxlar qabul qilinishi buyurtmachi tashkiloti nazoratida qoladi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish obektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik qoidalar”ga va SHNQ 4.01.16.09 (4-bob)ga binoan qurilishning dastlabki narxi tavsiyaviydir. Tanlov savdolarini o‘tkazish uchun tavsiya etilgan dastlabki baholari buyurtmachi qabul qiladi. Obektning shartnomaviy joriy narxi tanlov savdolari natijalariga ko‘ra belgilanadi hamda buyurtmachi va pudratchi o‘rtisida shartnoma tuzishga asos bo‘ladi.

6.8. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabkyoi ma’lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo‘yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.9. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.10. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

**7. Xulosalar.**

7.1 **“Jizzax viloyati, Jizzax shahar, Kimyogar MFY, Alisher Navoiy ko'chasi, 31-uy manzilida noturar joy binosini qauta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilib to‘liq noturar joy binosini 1-qavatining bir qismidan nodavlat ta’lim tashkiloti, qolgan va 2-7 qavatlarini turar joy binosi sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiua qilish”** ishchi hujjatlar ekspertiza tekshiruv natijalari, e’tirozlar va takliflarini hisobga olgan holda kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

**Bosh ekspert:** Sherkulov Askar Xudayberdiyevich.

**Ishtirokchi ekspertlar:** Sharipov Timur Alisherovich, Ayubov Rustam Xamitovich, Abduramanov Nazim Xxx, Abduvaxidov Sarvar Anvar O‘g‘li, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Usmanov Dilshod Xojiakbarovich, Maxmudov Bobir Inatulla O‘g‘li, Sherkulov Askar Xudayberdiyevich